Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321093

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

1. "Agro 2.0: Qishloq Xo'jaligida Raqamli Innovatsiyalar". 2022. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
2. Mirzayev, B. 2021. "Biotexnologiyalar va Ularning Qishloq Xo'jaligida Qo'llanilishi". Maqola. AgroInnovatsiya jurnali.
3. Qosimov, D. 2023. "Iqlim O'zgarishiga Qarshi Qishloq Xo'jaligida Innovatsion Texnologiyalar." O'zbekiston Qishloq Xo'jaligi Tashkiloti nashriyoti.

SANOAT TARMOQLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA BANDLIKNING INTELLEKTUAL TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSION FAOLLIKNI TA'MINLASH

Tursunov Bekmuxammad Omonovich,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, Phd., dotsent
omonovich-0387@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirishda bandlikning intellektual tarkibini takomillashtirishga yo'naltirilgan investitsion faollikni ta'minlash mexanizmi va uni tashkil etish tizimi asoslangan. Sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirishda bandlikning intellektual tarkibini takomillashtirishga yo'naltirilgan investitsion faollikni oshirishga doir ilmiy taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: sanoat salohiyati, investitsion faollik, bandlikning intellektual tarkibi, intellektual salohiyat, investitsion siyosat.

Sanoat korxonalarini barqaror iqtisodiy rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlarini shakllantirish; ishlab chiqarishni tashkil etish, taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol jarayoni bilan bog'liq munosabatlarni takomillashtirishda intellektual omillar konsentratsiyasini ta'milovchi mehnat munosabatlariga alohida e'tibor berishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 12 oktyabrdagi "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-169-sonli Farmonida mazkur rivojlanish omillarini sanoat ishlab chiqarish jarayoniga yo'naltirilgan mexanizmni shakllantirish orqali "yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat yo'nalishlarini jadal rivojlantirish, sanoat tarmoqlariga xususiy investitsiyalarni keng jalb etish orqali raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda yirik tarmoqlarda ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv tizimi joriy etish"[1] kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarning samarali ijrosi va natijadorligi sanoat ishlab chiqarishda bandlikning intellektual tarkibini takomillashtirishga yo'naltirilgan investitsion faollikni oshirishni talab etadi.

Sanoat tarmoqlarida bandlikning intellektual tarkibini takomillashtirishga yo'naltirilgan investitsion faollikni ta'minlash, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish bilan bog'liq quyidagi ustuvorliklarni shakllantirish imkoniyatini beradi:

– sanoatda samarali bandlikni ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini innovatsion rivojlanish vektorlarini shakllantirish orqali mehnat unumdorligini ta'minlash;

– mehnat bozorini rivojlantirishning strategik vazifalariga muvofiq bandligining intellektual darajasini sanoat ishlab chiqarishning tuzilmaviy tarkibiga muvofiqlashtirish;

Published: 23.12.2024
Cite this article: Tursunov Bekmuxammad Omonovich (2024). Sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligini oshirishda bandlikning intellektual tarkibini takomillashtirishga yo'naltirilgan investitsion faollikni ta'minlash. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321093
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

– sanoat salohiyatidan foydalanishning hududiy taqsimotini rag‘batlantiruvchi ta’sirchan mexanizmlarni shakllantirish orqali mehnatni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish;

– sanoat korxonalarida sanoat ishlab chiqarishning ma’lum ssenariylari doirasida mehnat salohiyatini rivojlanishga yo‘naltirilgan tuzilmaviy tarkibini kengaytirish va boshqalar.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotida investitsiyalar, ishlab chiqarishning tarkibiy o‘zgarishlarini amalga oshirish va moddiy-texnik asosini takomillashtirish bilan birga ishchi kuchining intellektual salohiyatini oshirish orqali takror ishlab chiqarish bosqichlarida faoliyat samaradorligini ta’minlash vositasi sifatida xizmat qilmoqda.


Davlatning sanoat siyosatini tashkil etish va muvofiqlashtirishga yo‘naltirilgan investitsion faoliyat strategiyasi ta’sirida sanoat ishlab chiqarishning tuzilmaviy tarkibi takomillashib boradi. Sanoat ishlab chiqarishning tuzilmaviy tarkibini o‘zgarishi hududiy darajadagi bandlikning intellektual tarkibini takomillashuvi ta’sirida iqtisodiy o‘sishning yangi nuqtalarini shakllantirish, investitsiya siyosatini amalga oshirishning texnik va texnologik ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladigan faol investitsion jarayonlarni amalga oshirishga olib keladi.

Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishni rivojlantirish omillari va uning tegishli manbalari bilan bog‘liqlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan investitsion siyosat bandlikning intellektual tarkibini takomillashtirishni sanoatning tuzilmaviy tarkibini optimallashtirish yo‘naltirilgan fundamental asoslarini shakllantirishni talab etadi. Sanoatning tuzilmaviy tarkibini optimallashtirishga yo‘naltirilgan fundamental asos sanoat ishlab chiqarishda investitsiyalarning markazlashuvi bilan bog‘liq muammoning samarali yechimi shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadi.

So‘ngi yillarda mamlakatimizda iqtisodiy faollikni ta’minlashga yo‘naltirilgan investitsiya siyosatini amalga oshirish jarayoniga nisbatan ustuvorlik berilayotgan bo‘lib, mazkur investitsiya siyosati asosini sanoat ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, yuqori qo‘shilgan qiymatli eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va aholi bandligini ta’minlash bilan bog‘liq chora tadbirlar tizimi tashkil etadi[2]. Ushbu chora tadbirlarning samarali ijrosini ta’minlash jarayoni tarmoqda bandlikning intellektual taribini takomillashtirishga yo‘naltirilgan investitsion faollikni oshirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Sanoat tarmoqlarida bandlikning intellektual tarkibini takomillashtirishga yo‘naltirilgan faol investitsiya siyosatini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi investitsiya jarayonini tizimli asosga ega ekanligi va sanoatni majmuali iqtisodiy rivojlantirishni ta’minlaydigan omillarning sinergik samaradorligini ishirish zaruriyatini ifodalaydi.

Davlatning investitsiya siyosati doirasida sanoat tarmoqlarida bandlikning moslashuvchan tizimini shakllantirish, investitsion loyihalarni amalga oshirishning hayotiylik siklini samarali boshqarish imkoniyatini beradi. O‘z o‘rnida investitsion jarayonning doimiy harakati investitsiyalar oqimini muayyan yo‘nalish doirasida markazlashuvi bilan bog‘liq jarayonlarni oldini olishga xizmat qiladi. Tarmoqda bandligining intellektual tarkibini investitsion loyihalar samaradorligini oshirishga yo‘naltirish davlat doimiy ravishda investitsiya manbalarini diversifikasiyalash hisobiga takomillashib boradi.



1-rasm. Sanoat tarmoqlarida bandlikning intellektual tarkibini takomillashtirishga yo‘naltirilgan faol invetitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmi[3][153]

Sanaot sohasida kadrlar tayyorlash tizimini diversifikatsiyalash orqali ilm-fan sig‘imi yuqori tarmoqlarni rivojlantirish investitsion loyihalarning rentabellik va tavakkalchilik darajasi bilan bog‘liq bo‘lib, investitsiya bozoridagi o‘rtacha qiymatga yaqin bo‘lgan natijadorlik, investitsiya obyektini yakunlash va rentabellik darajasi yuqori bo‘lgan sohalarda loyihalarni davom ettirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekistonni 2030 yilga qadar global innovasion indeks reytingida dunyoning 50 ta yetakchi davlatlari qatoriga kiritish bo‘yicha ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik rejada e’lon qilingan bo‘lib, ushbu rejada sanoat tarmoqlarida inson kapitalidan foydalanish omillari bilan birga, ilm-fan sohasini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirishga doir vazifalar belgilangan. Bu o‘z navbatida ilm-fandagi tegishli huquqiy baza bilan tartibga solinadigan tub tarkibiy, tashkiliy, moliyaviy hamda kadrlar va infratuzilmaga oid o‘zgarishlarni taqozo etadi.

Fikrimizcha, ushbu yo‘nalishda tegishli o‘zgarishlar asosi quyidagilarga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq:

–sanoat tarmoqlarini rivojlantirishda kadrlar tayyorlashni vertikal kadrlar tayyorlash tizimidan gorizontal kadrlar tayyorlash tizimiga o‘tkazish orqali sanoat ishlab chiqarishda uzluksiz kadrlar almashinuv mexanizmini shakllantirish;

–sanoati rivojlangan davlatlarning sanoat siyosatini innovatsion asosda tashkil etish tajribasiga asoslanib, sanoat ishlab chiqarishning turdosh tarmoqlari hisobiga vertikal ishlab chiqarish zanjirlari va tarmoq kombinatsiyasiga ega bo‘lgan bandlikni ta’minlash;

–sanoat tarmoqlarida deformatsiyalashgan bandlik darajasi yuqori ulushga ega. Bu o‘z navbatida sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasi, integratsiyasi va konglomeratsiya bilan bog‘liq ko‘p tarmoqli rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu boisdan sanoat tarmoqlarida progressiv va regressiv rivojlanish omillarining erkin harakatini ta’minlashga yo‘naltirilgan axborot makonini shakllantirish orqali, tarmoqda bandlikni oshirishning intellektual va innovatsion salohiyatni ro‘yobga chiqarish;

–sanoat tarmoqlarida innovatsion mahsulotlarni yaratishga qaratilingan bandlik tizimining yangi integral xususiyatlariga muvofiq, yangi sanoat tuzilmalari doirasida ishchi kuchining erkin harakatlanishi uchun malaka darajasini tavsiflovchi umumiy mezon va ko‘rsatkichlarni shakllantirish orqali bandlikning intellektual tarkibini shakllantirishdan ortda qolayotgan tarmoqlarda intellektual bandlikni sifat ko‘rsatkichlariga erishish va boshqalar. **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 12 oktabrdagi “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-169-sonli Farmoni

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2023 — 2025 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 459 sonli Qarori

Tadqiqot natijalariga muvofiq muallif tomonidan shakllantirilgan

[153] Tadqiqot natijalariga muvofiq muallif tomonidan shakllantirilgan